

Savdo-iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston va Qozog'iston
o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashning
harakatlantiruvchi kuchidir



Shu kunlarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga amalga oshirgan davlat tashrifi shubhasiz, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, ularga yanada izchil tus berdi.

Davlat rahbarlari sammitining samarali yakunlari O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari tarixiga muhrlanishi shubhasiz. Oliy darajadagi muzokaralar kun tartibi keng ko'lam kasb etib, har tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid keng doiradagi masalalarni qamrab olgani ham buni tasdiqlaydi.

Tashrif davomida davlatlararo munosabatlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha salmoqli hujjatlar paketi imzolandi. Shu bilan birga, rahbarlar an'anaviy tarzda o'z e'tiborlarini O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratdi.

Qiymati 7 milliard dollardan oshadigan yangi bitim va shartnomalar imzolangani ham muzokaralarning yuqori samaradorligidan dalolat beradi. Ikki davlat rahbarlari energetika, transport va logistika, metallurgiya, to'qimachilik, agrar va qurilish sohalari bo'yicha hamda hududlar o'rtasida yirik qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga start berdi. Bundan tashqari, kelgusi yillarda tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish maqsadida joriy yil avgustiga qadar o'zaro bozorlarni shakllantirish va mavjud cheklovlarni bartaraf etishga qaratilgan Kompleks dastur ishlab chiqish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Shu nuqtai nazardan, Qozog'iston O'zbekistonning uchta eng yirik hamkorlaridan biri ekanini ta'kidlash joiz. So'nggi 7 yil ichida mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2,5 baravardan ortib, 2023 yil yakunida 4,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bunday ijobiy dinamikani hisobga olgan holda tovar ayirboshlash darajasini 10 milliard dollarga yetkazish mumkin.

Ayni damda, har ikki mamlakat ham iqtisodiy o'zaro hamkorlikning yangi shakllarini yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni olib bormoqda.

2023 yilning mart oyida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida «UzKazTreyd» MCHJ tashqi savdo kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu eksport-import korxonasi muassislari «QazTrade» savdo siyosatini rivojlantirish markazi» AJ va «O'zTreyd» AJlar bo'ldi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ishlab chiqarish hamkorligini rivojlantirish maqsadida muzokaralar chog'ida ikki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardosh ustunliklaridan foydalanish va bir-birini to'ldirishga asoslangan yangi sanoat kooperatsiyasi strategiyasini qabul qilish zarurligi qayd etildi.

Bu ishlab chiqarish sohasi uchun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, qimmat importni mahalliy mahsulotlarga almashtirish uchun shart-sharoit yaratadi, qo'shma mahsulotlarni uchinchi davlatlar bozoriga olib chiqish bo'yicha umumiy sa'y-harakatlar samaradorligini oshiradi va umuman, mamlakatlarimiz iqtisodiyotlarining o'zini-o'zi ta'minlashini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shadi.

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirishni jadallashtirish bo'yicha kelishuvga erishilgani bu boradagi muhim amaliy qadamlardan bo'ldi. Markaz nafaqat yangi ishlab chiqarishlarni rag'batlantiradi, balki yuk tashish samaradorligini oshiradi, yuklarni yetkazib berishni jadallashtirib, logistika harajatlarini kamaytiradi.

Mamlakatlarimiz iqtisodiyoti bir-birini to'ldirayotgani iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllariga e'tibor qaratgan holda sarmoyaviy hamkorlik ko'lami oshib borayotgani va o'zaro manfaatli sheriklikning istiqbolli "o'sish nuqtalari"ni topishda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda qozog'istonlik sarmoyadorlarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortdi. 2017 yildan boshlab Qozog'istondan mamlakatimizga kiritilgan investitsiyalar hajmi 23 barobar, ya'ni 10 million dollardan 2023 yilda 230 million dollargacha oshdi. Ayni damda O'zbekistondagi Qozog'iston korxonalari soni ham ortib bormoqda. 2016 yilga nisbatan ularning soni qariyb besh barobarga oshdi (1100 dan ortiq).

Shu jihatdan tomonlarning ikki davlatning o'zaro manfaatlariga javob beradigan va uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka intilishga asoslangan davlatlararo munosabatlarning yangi dinamikasini aks ettiradigan yangi istiqbolli loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Qo'shma jamg'arma tashkil etish masalasi ustida ishlashga tayyorligi alohida e'tiborga molik.

Qayd etish joizki, bugungi kunda ikki mamlakat tomonidan umumiy qiymati 3 milliard dollarga teng 70 ga yaqin loyiha amalga oshirilmoqda. Ularda 14 mingdan ziyod ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan.

Davlatlar rahbarlari hujudlararo hamkorlikni kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Unda Forumni hududlar kengashiga aylantirish va unga barcha viloyatlar va markaziy shaharlarni jalb etish muhim qarorlardan biri bo'ldi. Yangi mexanizm ikki mamlakatning savdo-iqtisodiy, sanoat, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi ko'p qirrali o'zaro hamkorligini rivojlantirish katalizatori bo'lib xizmat qilishga qaratilgan.

Shu bilan birga, tomonlar mintaqaviy ahamiyatga molik strategik loyihalar, jumladan Qambarota GES-1 qurilishini jadallashtirish muhimligini ta'kidladi. Bu ko'p qirrali mintaqaviy loyiha bo'lib, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun energetika va suv resurslarini birgalikda o'zlashtirishga qaratilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga davlat tashrifi yakunlari juda samarali bo'ldi. Erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlar ikki tomonlama o'zaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun mavjud salohiyatdan foydalanishga bo'lgan o'zaro intilishdan dalolatdir.

Tomonlarning savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorligini yanada mustahkamlash bo'yicha belgilangan rejaları mamlakatlarimiz iqtisodiyotining o'zini-o'zi ta'minlash uchun katta turtki bo'lishi va butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Azamat Sulimanov,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bo'lim
boshlig'i

Manba